

**«MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK-
PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI»**

Ashurov Abdurashid Ravshanovich

Qashqadaryo viloyati SHahrisabz pedagogika kolleji direktori

Maktabgacha yoshdagi bolalarda pedagogik psixologik rivojlanish bosqichlari

Annotatsiya: *Bu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalar xolistik rivojlanishida ularning psixologik xususiyatlar haqida fikir yuritilgan bo'lib, sezgi, idrok, xayol, xotira, tafakkur va nutq kabi psixologik jarayonlarning tafsiloti haqida fikir bildirilgan. Maqoladagi ma'lumotlardan soha mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan barcha talab avam magistrantlar foydalanishlari mumkin.*

Kalit so'zlar: *Xolistik, sezgi, analizator, qo'zg'atuvchi, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, diqqat, xayol, xotira, tafakkur, nutq.*

**"ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА
ДОШКОЛЬНИКОВ"**

Ашуров Абдурашид Равшанович

*Директор Шахрисабзского педагогического колледжа Кашкадарьинской
области*

Этапы педагогического психологического развития дошкольников

Аннотация: *В данной статье рассматриваются психологические особенности дошкольников в их целостном развитии, а также детали таких психологических процессов, как интуиция, восприятие, воображение, память, мышление и речь, могут быть использованы аспирантами.*

Ключевые слова: *целостный, интуиция, анализатор, раздражитель, произвольный, непроизвольный, внимание, воображение, память, мышление, речь.*

**"PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF PRESCHOOL
CHILDREN"**

Ashurov Abdurashid Ravshanovich

Director of Shahrizabz Pedagogical College of Kashkadarya Region

Stages of pedagogical psychological development in preschool children

Annotation: *This article discusses the psychological characteristics of preschool children in their holistic development, and the details of psychological processes such as intuition, perception, imagination, memory, thinking and speech. can be used by graduate students.*

Key words: *Holistic, intuition, analyzer, stimulus, voluntary, involuntary, attention, imagination, memory, thinking, speech.*

O'rganib chiqilgan manbalardan olingan xulosalarga ko'ra fanda xolistiklik tushunchasiga jismoniy-ruhiy va salomatlikni aniqlash omili sifatida talqin etilgan. Bu tushunchani birinchi bo'lib Denis Tenglarning o'z maqolasida o'rganib chiqqan. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra bolaning ruhiy olami ko'plab psixik jarayonlarning taraqqiyoti va ishtirokiga bog'liq hisoblanadi. Dunyoni hissiy idrok etishi dastlab sezgilar orqali amalga oshiriladi. Ya'ni bola ko'rgan va eshitgan, mazasini bilgan, ushlab ko'rgan narsa va predmetlari bilan munosabat o'rnata boshlaydi. Demak, sezgilar bola uchun atrof-muhit to'g'risida va kishilar haqida yagona bilish manbai sifatida xizmat qiladi. Sezgilar shunday bir informatsion kanalki, ular tashqi olamdan va ichki tana a'zolaridan keladigan barcha holatlar, taassurotlar aynan xuddi shu yo'llar orqali miya po'stiga yetib boradi, insonga ta'sirlarga nisbatan to'g'ri javob reaksiyalari qaytarishga yordam beradi. Bizga ma'lumki sezgilar biror bir sezgi a'zosining qo'zg'alishidan hosil bo'ladi. Qo'zg'atuvchi reptseptorga ta'sir etishi bilanoq sezgi hosil bo'lmaydi: qo'zg'atuvchi ta'sir eta boshlagandan bir necha vaqt keyingina sezgi hosil bo'ladi. Sezgilar davom etish muddatiga qarab qisqa va uzoq muddatli sezgilarga bo'linadi. Sezgi chegarasining me'yori qanchalik kichik bo'lsa, mazkur analizatorning sezgirliigi shunchalik yuksak bo'ladi. Keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib maktabgacha yoshdagi bolalarning xolistiligini aniqlashda sezgi a'zolari va uning bajarish fuksiyalari, qiymati haqida ilmiy ma'lumotlarni egalashimiz muhim.

Bolalar xolistikligini rivojlantiruvchi navbatdagi psixik jarayon bu—idrokdir. Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon hisoblanganligi sababli barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi, aks ettirishda ishtirok qiladi. Idrok sezgi bilan o'zaro bog'liq bo'lib analizatorlarning joylashuviga ko'ra ko'rish idroki, eshitish idroki, hid bilish idroki, ta'm bilish idroki va boshqalarga bo'linadi. Faolligiga ko'ra ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlarga bo'linadi. Ixtiyorsiz idrokda narsalar odamning ongida avvaldan maqsad qo'yilmagan xolda aks ettiriladi. Odatda narsa va hodisalarning tashqi xususiyatlari, kishining histuyg'ulariga ta'sir etishi ixtiyorsiz idrokni vujudga keltiradi. Ixtiyoriy idrokda odam o'z oldiga muayyan maqsad, vazifa qo'ygan bo'ladi. Ixtiyoriy idrokda odam shunchaki eshitmaydi, balki tinglaydi, shunchaki ko'zdan kechirmaydi, balki sinchiklab ko'radi. Ixtiyoriy idrok ko'p hollarda biron faoliyatning tarkibiga kirgan bo'ladi. Kuzatish ixtiyoriy idrokning turlaridan biri hisoblanadi. Kuzatish maqsadga qaratilgan,

uyushgan, ozmi-kupmi ko'piroq vaqt davom etadigan idrokdir. Kuzatishda, odatda, kishi o'z oldiga maqsad qo'yadi: Biron-bir ob'yekt, xodisa yuz beruvchi o'zgarishlarni kuzatadi. Tevarak olamdagi narsalarni idrok qilish bilan birga, biz ularning fazoviy xususiyatlarini – shakli, katta-kichikligi, o'zaro bir-biridan va bizdan qanchalik uzoq-yaqinligini xam idrok qilamiz. Odatda, inson tomonidan vaqtni idrok qilish asosan, ruhiy hodisalar, holatlar, vaziyatlar, xususiyatlarning o'zaro o'rin almashinuvi tufayli namoyon bo'ladi va o'ziga xos tuzilishi bilan mazkur jarayonning boshqa shakllaridan farq qilib turadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar xolistik rivojlanishida ishtirok etadigan yana muhim psixik jarayonlardan biri diqqat hisoblanadi. Diqqat inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning va ularning samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Kishi faoliyati qanchalik murakkab, serzahmat, davomiylik jihatdan uzoq muddatli, mas'uliyat hissini taqozo qilsa, u diqqatga shunchalik yuksak shartlar va talablar qo'yadi. Inson ziyrakligi, farosatliligi, tez payqashi, sinchkovligi, dilkashligi uning turmush sharoitida, shaxslararo munosabatida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Diqqat aqliy faoliyatning barcha turlarida ishtirok etadi, insonning xatti-harakatlari ham uning ishtirokida sodir bo'ladi.

Psixologiya fanida diqqatga har xil ta'rif beriladi, uni yoritishda psixologlar turli nazariyaga asoslanib yondashadilar. Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga aktiv (faol) qaratilishi aytiladi (P. I. Ivanov). P. I. Ivanovning fikricha, biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimiz qilgan ishimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning ob'yekti bo'la oladi.

Demak, bola faoliyati jarayonida diqqat qilmay turib, biron-bir narsani anglashi, kimnidir yoki nimanidir yodda saqlab qolishi mumkin emas. Aynan bala xolistik rivojlanishida diqqatning o'rni katta hisoblanadi.

Ma'lumki, agar tashqi olamning bosh miya katta yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan obrazlari, timsollari va ularning izlari yo'qolib ketaversa, tajribaning saqlanishi, bilimlarning boyishi, murakkablashishi, muayyan tartibga kelishi, qaytadan jonlanishi mutlaqo mumkin bo'lmas edi. Modomiki shunday ekan, mazkur obrazlar bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'lanib, asta-sekin mustahkamlanib, miya qobig'ida puxta saqlanib qoladi, shu bilan birga, hayot va faoliyatning muayyan talablariga muvofiq ravishda qaytadan jonlanadi, avvalgi holatini boshqatdan namoyon qiladi. Bu psixik jarayon xotira deb nomlanadi. G'oziyev ta'rifiga ko'ra: xotira atrof-muhitdagi voqelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va aktiv (faol) holda reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qaytadan esga tushirish, unutish hamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon alohida va umumiy namoyon qiluvchi hodisa, barcha taassurotlarni ijodiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik (yunoncha tpeta — xotira) faoliyatdir.

Inson xolistikligida xayol yoki fantaziya katta ahamiyatga ega. Xayol sezgi, idrok, tafakkur jarayonlari bilan uzviy bogʻliq boʻlib, borliqni yangi buyoqlarda, oʻz hoxishi, istagi, tasavvuri shaklida aks ettirishidir. Koʻrgan, eshitgan, qisqasi oʻz tajribasidan oʻtkazgan narsa hodisalarni koʻz oldiga keltirish - qayta tiklovchi, oʻz istagi hoxishi asosida yangi obrazlar yaratib tasavvur qilish -ijodiy xayol shaklida namayon boʻladi. Ijodiy xayol - fantaziya deb ham aytiladi.

Shunday qilib, bolalar xolistik rivojlanishi maʼlum psixik jarayonlar natijasida shakllanib, rivojlanib boradi. Bola dunyoqarashini shakllanishida tafakkurning oʻrni alohida hisoblanadi.

Tafakkur jarayoni bu murakkab psixik jarayon hisoblanib, unda bola koʻrgan va eshitgan narsa va hodisalarni analiz va sintez qiladi, qismlarga ajratib, umumiy xulosaga keladi. Maʼlumki, tabiat va jamiyatdagi bilim va tajribalarni bolalar tomonidan oʻzlashtirib olish analizdan boshlanar ekan.

Sintez esa, shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bolalar narsa va hodisalarning qismlarga boʻlingan, ajratilgan ayrim qismlarini, boʻlaklarini sintez yordami bilan fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib, butun holiga keltiradilar.

Inson tafakkurining oliy jarayoni esa nutq hisoblanadi. Inson ana shu nutqi orqali dunyoga va kishilarga boʻlgan munosabatini ifodalaydi. Aynan bolalar ham nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini va ularga boʻlgan munosabatini nutqi orqali yoshi, psixik rivojlanishiga koʻra taʼriflab beradi. Sezgi, idrok orqali narsa va hodisalarning sezgi organlari orqaligina bilish mumkin boʻlgan xususiyatlari aks etsa, bu bilan bilish doirasi cheklandi degani emas. Narsa va hodisalar bevosita bilib boʻlmaydigan xususiyatlarga, oʻzaro aloqaga, rivojlanish qonuniyatiga ega.

Xulosa sifatida taʼkidlashimiz lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalar xolistiklik rivojlanishibola yuqoridagi psixik jarayonlar natijasida amalga oshirilar ekan, ularni har qanday psixik zoʻriqish, negativ holatlardan himoyalash lozim boʻladi. Shuningdek, otanalar, tarbiyachi-pedagog va shifokorlar bolaning psixik va fiziologik rivojlanishini doimiy kuzatuv hamda nazoratda ushlashlari shartdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.A. Mavlonova, N. H. Raxmonqulova, K.O.Matanazarova, M. K. Shirinov S. Hafizov "Umumiy pedagogika" « Fan va texnologiya» nashriyoti T.: 2018
2. N.N.Azizxoʻjayeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" «Oʻzbekiston yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamgʻarmasi» nashriyoti T.: 2006
3. J.Gʻ.Yoʻldoshev, M.K.Shirinov, F.I.Ochilov "Pedagogik diagnostika" oʻquv metodik qoʻllanma T.:2014
4. Oʻtkir Tolipov, Dilnoz Roʻziyeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" «Toshkent innovatsiya-ziyo» T.: 2019